

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

CHARACTERISTICS OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN FRANCE DURING THE VOLTAIRE PERIOD

Fayziev Khurshid Jumayevich,

Bukhara State University, PhD student

Abstract. This article briefly describes the spiritual environment in France in the 18th century.

Keywords: Voltaire, Montesquieu, Rousseau, Diderot, Holbach, Helvetius, religion, despotism, society.

VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fayziyev Xurshid Jumayevich,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: candide82@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVIII asrda Fransiya ma'naviy muhit qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Volter, Monteskye, Russo, Didro, Golbax, Gelvetsiy, din, despotizm, jamiyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N41>

XVIII asrda fransuz ma'rifatparvar faylasuflari: Volter, Monteskye, Russo, Didro, Golbax, Gelvetsiy va boshqalar Fransiya ijtimoiy tafakkur yo'nalishlarini belgilab berdilar. Ular tobora chirib borayotgan absolyut monarxiyaning ustunlariga o'nlab bo'lmas zarbani berdilar. Buyuk fransuz burjua revolyutsiyasi yuz berishi uchun zaminni tayyorlab berdilar desak sira ham mubolag'a bo'lmaydi. Tarixchi iyezuit Fantin dez Odoard, Yetti yillik urush oxirida jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olgan falsafiy munozaralar avj olganligini ta'kidlab o'tgandi[1].

Sharl Lui de Monteskye (1689-1755) — fransuz faylasufi, yozuvchisi va tarixchisi. Monteskyeni ko'plab Yevropa mamlakatlariga sayohat qilishi, uning falsafiy qarashlarini shakllanishiga muhim rol o'ynadi. Ayniqsa Angliya bo'lgan vaqtida bu davlatdagi huquqning ustuvorligi va shaxs erkinligi uni hayratga soldi. Ingliz modelidagi davlat tizimiga qoyil qolgan Monteskye Fransiya ham shunga o'xshash tizimni o'rnatishni xohlamadi va shuning uchun boshqa davlatning ichki tartibini o'ylamasdan nusxa ko'chirish tarafdori bo'lmasdan, ijtimoiy tuzilmaning begona elementlarini tom ma'noda qabul qilishga qarshi chiqdi, chunki uning fikricha, davlat asoslari xalqning ruhiga, ularning mentalitetiga, axloqi va an'alariga mos kelishi kerak[2]. U "Fors maktublari" asarida fransuz jamiyatidagi illatlarni fosh qilib, uni Eron jamiyati bilan taqqoslaydi. Xususan, fransuz qiroli Lyudovik XIV urushda g'alabalarni yaxshi ko'rsa-da, lekin o'zining g'alaba keltiruvchi generallaridan qo'rqishini kinoya bilan tilga olib, ushbu qirol unga sochiq tutuvchi xizmatkorni, urushda g'alaba qozongan generaldan afzal

ko'rganligini ta'kidlab o'tadi. Monteskyening tanqidlari qonunlarga asoslangan monarxiyaga emas balki, o'zboshimchalikka asoslangan despotizmga qarshi qaratilgandi. Aynan fransuz absolyut monarxiyasida despotizm elementlari mavjudligini u bilvosita tan oladi.

Uning bag'rikenglik haqidagi qarashlari "Fors maktublari" asarida bayon qilingan. Qahramonlardan birining tilidan, Erondan xristian diniga e'tiqod qiluvchi armanlarni mamlakatdan quvib chiqarish yoki ularni islom dinini qabul qilishga majburlash rejasi, Eronni bir kunda barcha savdogar va hunarmandlardan mahrum bo'lishiga olib kelardi deya fikr bildirib o'tiladi. Bu yerda Fransiyada Nant ediktini Lyudovik XIV tomonidan bekor qilinishi ortidan mamlakatdan protestantlarni chiqib ketganligi va uning salbiy oqibatlariga kinoya qilingan. Dinlarning ko'pligi mamlakat uchun juda foydalidir. Chunki mamlakatda yetakchi bo'lmagan din vakillari barcha sohada yuqori martabalarga erishish maqsadida tinimsiz mehnat qiladilar.

Monteskye o'zining "Qonunlar ruhi" nomli asarida, insonlar davlat qonunlariga bo'ysunib yashash maqsadida, o'zlarining tabiiy holatlaridan chiqqanlar deb ta'kidlagan. Har bir xalqning xarakteri va qonunlari shakllanishida iqlim va geografik faktor hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli bir xalqqa to'g'ri kelgan qonun boshqa xalqqa to'g'ri kelmasligi mumkin. "Men Fransiyada bo'lganimda hamma bilan do'stlashaman, — deb yozgandi Monteskye, — Angliyada men hech kim bilan do'stlashmayman"[3]. Shunday qilib, "Qonunlar ruhi" jahon sivilizatsiyalarining birinchi yirik qiyosiy tadqiqoti ekanligi bilan ajralib turadi[4]. Dyurkgeym Monteskyening qiyosiy metodni bilvosita qo'llashini uning ishining markaziy xususiyati deb hisoblagan[5]. Monteskyening asosiy g'oyalari "Qonunlar ruhi", "Fors maktublari" va "Rimliklarning buyuklikka erishishi va tanazzulining sabablari haqida mulohazalar" asarlarida ifodalangan.

Deni Didro (1713-1784) — fransuz faylasufi, materialisti va ensiklopedisti.

Didro mashhur "Ensiklopediya" asoschisi va uning asosiy mualliflaridan biridir. "Ensiklopediya"da ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot bilan bog'liq muammolar bo'yicha ko'plab faylasuflarning maqolalari joy olgan edi. "Ensiklopediya", dastlab Efraim Chambersning, birinchi nashri 1728-yilga to'g'ri keladigan "Siklopediya"sining fransuz tilidagi tarjimasi bo'lishi uchun mo'ljallangan bo'lib, ammo falsafiy qarashlarida ateizm, materializm va evolyutsiya nazariyasiga urg'u berishni davom etgan tipograf Didroning boshi bilan sho'ng'ishni afzal ko'rgan bir umrlik faoliyatiga aylandi[6].

Didro olamni materiyadan tashkil topgan va u doimo harakatda deb hisoblagan. Materiya esa, uning fikricha o'z navbatida cheksiz va abadiydir. Didro o'z zamondoshlari tomonidan ko'klarga ko'tarib ideallashtirilgan "oltin davr"ga ya'ni xususiy mulk bo'lmagan va barcha ne'matlar teng taqsimlangan ibtidoiy jamiyatga kinoya bilan munosabatda bo'ldi. Bu bosqich insoniyatning "bolalik davri" bo'lganligi va hozir "qarilik davri"ni boshidan o'tkazayotgan insoniyat uchun orqaga qaytishni iloji yo'q. O'tmishga qaytish orzusi haqida fikr bildirar ekan, u uchun yalong'och bo'lish yoki hayvon terisini yopinib yurish qiyin masala hisoblanishini ta'kidlab o'tgandi Didro. Endryu S. Kerranning fikricha, Didro ta'limotidagi markaziy savollar quyidagilardir:

- Nima uchun Xudosiz dunyoda axloqli bo'lish kerak?
- San'at asarlari bilan qanday munosabatda bo'lishimiz kerak?
- Insonning tabiati va kelib chiqishi qanday ?
- Jinsiy mayl va sevgi nima?

- Qanday qilib faylasuf siyosiy sohaga aralasha oladi[7]?

Didro din va despotizmga nisbatan qat'iy pozitsiyada turgan. Uning fikricha, ruhoniylar jaholatni mustahkamlashga intiladilar, chunki e'tiqod — ruhoniylar imtiyozlarining asosidir, aql esa — e'tiqodning dushmanidir. Despotizm garchi ma'rifatli monarxning despotizmi bo'lsada yomondir. Barcha fuqarolar qonun oldida tengdirlar. Boylik faqat mehnat natijasida orttirilishi lozim, xalqni talash hisobiga emas.

Pol-Anri Golbax (1723-1789) — nemis-fransuz materialist faylasufidir. U “Tabiat sistemasi”, “Sog'lom aql” va boshqa ko'plab asarlar yozgan. Golbaxning fikricha, tabiat materiyadan iboratdir va materiya doimo harakatdadir. Biroq, Didroning “Tabiat sistemasi”ga qo'shgan hissasi qanchalik ko'p bo'lishidan qat'i nazar, aynan shu asar asosida Golbax falsafasi “fransuz materializmi va ateizmining cho'qqisi” deb hisoblangan[8].

Dastlabki jamiyat haqidagi Golbaxning fikrlari qiziqarlidir. Ilk jamiyatlar yovvoyi jangchilar yig'indisidan iborat bo'lib, ular ovchilik va baliq ovlash bilan shug'ullanib, turli hududlarga ko'chib yurishgan. Bu insoniyatning bolalik davridir. Bu Golbax XVIII asrda har bir xalq va inson to'rtta bosqichni ya'ni bolalik, yoshlik, yetuklik va qarilikni ketma-ketlik bilan bosib o'tadi deb hisoblangan nazariya tarafdori bo'lganligidan darak beradi. Keyinchalik ular o'troq tinch hayotga ehtiyoj sezishib, dehqonchilik va savdo bilan shug'ullana boshlashgan. Ishlab chiqarish faoliyatini o'sishi uchun asosiy turtki ehtiyojlarning o'sishi tufaylidir, deb hisoblagan Golbax[9].

Golbax insonlarni johillikka yetaklashni qoralagan. Odamlarni aldash va ularning noto'g'ri qarashlarini davom ettirishning eng ishonchli usuli — ularni bolalikda aldashdir. Aftidan, deyarli barcha zamonaviy xalqlar orasida ta'lim fanatiklarni, fidoyilarni, monaxlarni yetishtirishdan boshqa maqsadi yo'qdek; ya'ni jamiyat uchun zararli yoki foydasiz odamlarni, deb yozgandi Golbax[10]. Golbaxning fikricha, jamiyatning ilk ibtidosida din namoyondalar ya'ni kohinlarning roli katta bo'lgan. Keyinchalik harbiy yo'lboshchilar tomonidan siqib chiqarilishlariga qaramay, ular o'z pozitsiyalarini saqlab qolish maqsadida monarx hokimiyatini ilohiylashtirishga harakat qilganlar va bu orqali despotizmning yordamchilariga aylanganlar. Ular xurofotlardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanganlar. Xurofot eng katta kuchga ega bo'lgan mamlakatlarda biz har doim eng kam axloqni topamiz. Fazilat jaholat, xurofot, qullikka mos kelmaydi [...]. Insonlarni shakllantirish, fazilatli fuqarolarga ega bo'lish uchun biz ularga bilim berishimiz, ularga haqiqatni ko'rsatishimiz, ular bilan oqilona gaplashishimiz, ularni o'z manfaatlarini his qilishga majburlashimiz, ularni o'zlarini hurmat qilishga va uyatdan qo'rqishni o'rgatishimiz, ularda chinakam or-nomus g'oyasini uyg'otish, ezgulik qadrini va unga amal qilish sabablarini anglatish. Qanday qilib biz ularni kamsituvchi dindand yoki faqat ularni bo'ysundirishga, xorlikda saqlashga intilayotgan tiraniyadan bu baxtli natijalarni kutishimiz mumkin[11]?

Golbax cheklangan konstitutsion monarxiya tarafdori bo'lgan. Xalq davlat ishlariga ishtirok etishi lozim deb hisoblagan. Ammo xalqning har bir vakili o'z vataniga sadoqatli bo'lishi uchun, uni o'z vatanida yer uchastkasi bo'lishi lozim. Yer uchastkasi fuqaroni vatan bilan bog'lovchi rishtadir. Lokka ergashib Golbax ham xususiy mulkni himoya qilib, boylik mehnatdan hosil bo'lishini va hamma o'z mehnati mahsuliga ega bo'lishi kerakligini ta'kidladi[12].

Klod-Adrian Gelvetsiy (1715-1771) — fransuz materialisti va faylasufi. Uning “Aql haqida” asari mashhurdir. Gelvetsiyning fikricha insonlar manfaatlar va ehtiyojlar tufayli

jamiyatga birlashganlar. Insonlar o'z bo'lganligi va o'zidan kuchli hayvonlardan himoyalaniish maqsadida jamoa bo'lib yashashga intilganlar. Insonlar ovchilikdan yilqichilikka va so'ngra dehqonchilikka o'tishgan. Bu ular o'rtasida kelishuv bo'lishi uchun zamin hozirlagan. Keyinchalik xususiy mulkni yuzaga kelishi qonunni paydo bo'lishiga olib kelgan. Aql istak bilan ehtiyojning o'g'lidir. "Hamma odamlar, — deb yozgandi Gelvetsiy, — tushunish uchun bir xil qobiliyatga ega"[13].

Gelvetsiy afsonaviy dinga universal ya'ni falsafiy dinni qarshi qo'yadi. Falsafiy dinda avliyolar emas, balki faylasuflar bordir. Umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi falsafiy din kelajakda butun insoniyat diniga aylanadi. Insoniyatning boshiga keladigan hamma balolarga johillik va xurofot sababchidir. Gelvetsiy davlat boshqaruvini o'zgarishi xalq xarakterini o'zgarishiga olib keladi, deb hisoblagan. Biroq hech bir davlat boshqaruvi jamiyatning har bir a'zosiga teng qudrat va teng boylik bera olmaydi. Ko'p millatli davlatlar boshqaruvida federalizm tartiboti maqbul hisoblanadi.

Jan-Jak Russo (1712-1778) — XVIII asrning buyuk fransuz yozuvchisi va faylasufidir. Uning g'oyalari nafaqat Fransiya, balki Yevropada ham keng shuhrat topdi. Russo "Fanlarning axloqqa ta'siri", "Tengsizlik sabablari to'g'risida", "Ijtimoiy shartnoma" va boshqa asarlari bilar falsafa tarixida o'chmas iz qoldirdi. Russo taraqqiyotga pessimistik ruhda yondashadi. XVIII asr ma'rifatparvarlari o'z asrlariga optimizm bilan sug'orilgan taraqqiyotga ishonch bilan qarashgan bir paytda, Russo ushbu taraqqiyotning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritgan. Russo fikrining uchta jihati ayniqsa diqqatga sazovordir:

- birinchi navbatda, Russo XVII asr oxiridan boshlab taraqqiy etgan siyosiy va falsafiy tafakkurning birinchi buyuk tanqidchisidir. Bekon, Dekart, Lokk, Nyutonga qarshi, ular "taraqqiyot" deb ataydigan narsa, avvalambor, fazilat va baxtning inqirozi, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va manfaatlarga asoslangan Gobbs va Lokkning siyosiy va ijtimoiy sistemalari tengsizlik, egoizm va burjua jamiyatiga olib keladi (bu atamani u birinchilardan bo'lib ishlatgan);

- demak, Russo o'z davrining siyosiy va falsafiy nazariyasi tanqidchisi bo'lsa, uning tanqidi ichkaridan chiqadi. U Aristotelga ham, qadimgi respublikachilikka ham, xristianlik axloqiga ham qaytishni istamaydi, chunki u o'z davrining individualistik va empirik an'analarining ko'pgina ko'rsatmalarini qabul qilgan bo'lsa-da, turli savollar berib, ulardan turlicha xulosalar chiqaradi. Masalan: barchani barchaga qarshi urush holati ibtidoi yoki bu shunchaki tarixiy tasodifmi? Inson tabiatini demokratik davlatga erishish uchun shakllantirish mumkin emasmi?

- nihoyat, Russo birinchi bo'lib demokratiya davlatning yagona qonuniy shakli deb hisoblaydi[14].

Russoning fikricha, insonlar dastlab oila, jamiyat va xususiy mulk nimaligini umuman bilishmagan. Ammo aholi sonining o'sishi ochlikni va ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Oddiy qilib aytganda, insonlar tabiiy holatda fuqarolik holatiga o'tishga majbur bo'ladilar. Aks holda ular qirilib ketishlari mumkin edi. Tez orada xususiy mulk yuzaga keladi. Shunda boylar kambag'allarni himoya qilishni bahona qilib, aslida o'z mulklarini asrash uchun, "ijtimoiy shartnoma" tuzishga tashabbus ko'rsatadilar. Unga ko'ra oliy hokimiyat vakili sifatida xalq tomonidan saylangan shaxs qirol bo'ladi va uning asosiy vazifasi xalqni manfaatlarini himoya qilishdir. Ammo qirol jamiyat boyligini o'z xususiy mulkiga aylantirib, fuqarolarni o'zining qullari sifatida ko'ra boshlagan. Agar qirol xalqqa zulm qilsa, xalq isyon ko'tarib uni

hokimiyatdan mahrum qilish huquqini saqlab qoladi. Revolyutsiyani bu tarzda Russo tomonidan oqlanishi fransuz burjuaziyasida radikal qarashlarni shakllanishiga olib keldi. Russoning siyosiy fikri 1830- va 1848-yillardagi revolyutsionerlarga, 1871-yildagi Blanki va kommunarlariga, shuningdek, XIX asr oxirida anarxistlariga ta'sir ko'rsatdi[15].

Davlat boshqaruvining shakllanishi jamiyat ne'matlarini taqsimlash bilan bog'liq. Agar boylik faqat bir kishi olsa — monarxiya, agar bir nechta shaxslar o'rtasida taqsimlansa — aristokratiya va nihoyat, barchaga teng taqsimlanganda — demokratiya yuzaga kelgan. Russo dinni davlat uchun zararli deb hisoblagan. Katolitsizm jamiyatdagi birlikni buzuvchi faktordir. Haqiqiy xristianlik esa qullik uchun yaratilgan.

XVIII asrda fransuz burjuaziyasining taraqqiy etishiga feodal tuzum va katolik dini juda katta to'siq bo'lib turgandi. Ma'rifatparvarlar aynan absolyut monarxiyaning shu ustunlarini qattiq tanqid ostiga oldilar. Ularning ma'rifatparvarlik g'oyalari XIX asrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Ushbu g'oyalar hozirgacha jahonda muhim ahamiyat kasb etmoqda deb ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Fantin des Odoards. Histoire de France. – Paris: 1817, t. 10. – P. 165.
2. Гайнутдинова Л. А., Гайнутдинов Р. И.; Идеи Ш. Монтескье «о духе народа» и «образе правления» и их влияние на современный российский консерватизм; Вестник Русской христианской гуманитарной академии, 2021.с.197
3. Collins, J.C. Churton, Voltaire, Montesquieu and Rousseau in England, 1908.p.138
4. Macfarlane, Alan; Montesquieu and the making of the modern world; CreateSpace Independent Publishing Platform, 2018. p.13
5. Durkheim, Emile, Montesquieu and Rousseau. Forerunners of Sociology, Michigan, 1965.p.50-1
6. Salvadori, Philippe. La Vie culturelle en France aux XVI^e, xvii^e, xviii^e siècles, Éditions Ophrys, 1999, p. 172.
7. Curran, Andrew S. Diderot and the Art of Thinking Freely, Other Press, 2019, p.14
8. Topazio, Virgil W. D'Holbach's Moral Philosophy: Its Background and Development (Geneva: Institut et Musée Voltaire, 1956), p. 117
9. Holbach P.A. La politique naturelle. T.II. Chartre. 1923. p.38-39
10. Holbach, 1766, Le christianisme dévoilé, P.10.
11. Holbach, Système de la nature, 1770, édition de 1821 (éditeur : ledoux), tome 2, page 352.
12. Durant, Will (1965). *The Story of Civilization Volume 9: The Age of Voltaire*. Simon&Schuster. p. 707
13. Helvétius, Claude Adrien, De l'esprit or, Essays on the Mind, and Its Several Faculties, (London: 1759), p. 286
14. Scott, John T. "Introduction", dans The Major Political Writings of Jean-Jacques Rousseau, Chicago et Londres, The University of Chicago Press, 2012. p.XVII
15. Rousseau, Jean-Jacques *Textes politiques*, L'Âge d'Homme, coll. « Classiques de la pensée politique », 2007. p. 44.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).